



## INFLYATSIYA TUSHUNCHASI VA INFLYATSIYAGA QARSHI SIYOSAT

**Ahrorbek Sharobiddinov Qosimjon o'g'li**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Iqtisodiyot va qurilish fakulteti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 2-bosqich 207-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7215451>

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi eng muhim tushunchalardan biri bo'lgan inflyatsiya haqida to'xtalib o'tamiz. Biz bu maqolada aynan inflyatsiya nimaligi, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati haqida aytib o'tiladi. Uni qanchadir muddatda bir meyorda ushlab turish yo'llaridan biri bo'lgan inflyatsiyani targetlash haqida to'xtalamiz. O'zi inflyatsiyani targetlash iqtisodiyotga nima beradi-yu va iqtisodiyot nimani yo'qotadi degan savollarga ushbu maqolamiz orqali javob berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, inflyatsiyani targetlash, Markaziy bank, narx, foiz stavkasi, fiskal siyosat.

Inflyatsiya - lotincha "inflatio" so'zidan olingan bo'lib, "shishish", "bo'rtish", "ko'tarilish" degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Pulning qadrsizlanishi bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi. Inflyatsiya birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovarlarni ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq harid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar Inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inflyatsiya jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. Inflyatsiya termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada qo'llanilgan Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflyatsiya turli darajalarda bo'ladi: sudraluvchi (mo'tadil) inflyatsiya, shiddatli (galloping) inflyatsiya, giperinflyatsiya



inflyatsiya. Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxlari barqaror bo'lgan, rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning o'rta muddatli ko'rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo'lishi maqbul deb topilgan. Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

- Talab inflyatsiyasi ya'ni talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Soddaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.

- Taklif inflyatsiya ya'ni ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladigan inflyatsiya. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

Inflyatsiyaning ochiq va yashirin (bostirma) turlari mavjud. Ochiq inflyatsiya erkin narxlar amal qiluvchi bozorlarda kuzatiladi. Narxlarning notekis o'sishi bozor mexanizmini buzadi, lekin uni yo'qotmaydi. Iqtisodiyot bozor o'zgarishlariga o'z aks ta'sirini ko'rsataveradi va turli bozorlar muvozanat yo'nalishiga o'zi moslashadi. Yashirin inflyatsiya sharoitida vaziyat boshqacha bo'lib, davlat narxlar oshishidan xavotirga tushib, bunga qarshi kurashga kiradi, daromad va narxlar ustidan, ularni muayyan darajada muzlatgan holda yalpi ma'muriy nazorat o'ringaadi. Yashirin inflyatsiya bozorning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmini izdan chiqaradi. Muzlatilgan narxlar ishlab chiqarish xarajatlari yuqori bo'lgan sohalarga kapital yotqizishdan manfaatdorlikni yo'qqa chiqaradi. Shu sababli bu sohadan kapitalning qoldiqlari ham chiqib ketishga



harakat qiladi va tovarlar taqchilligiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotida taqchillik narxlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Bozor sharoitida ochiq, muvozanatlashgan inflyatsiya yuz beradi, bunda narxlar pariteta (nisbati) o'zgarmaydi, harajatlar ortishiga qarab narxning o'sishi firmalarning foyda olib ishlashini ta'minlaydi.

Inflyatsiya pul qadrini tushirib, uning iqtisodiy ahamiyatiga putur yetkazadi, shu bois davlat harajatlarini qisqartirish, soliqlarni oshirish, pul emissiyasini cheklash, monopol narxlarni tartiblash, narx erkinligini ta'minlash, ortiqcha pullarni bankka, qimmatli qog'ozlar bozoriga tortish va boshqalarlardan iborat inflyatsiyaga qarshi siyosat yuritiladi. Ammo oxirgi paytlar inflyatsiyani jilovlash murakkab ishga aylanib bormoqda. Shu sababli olimlar inflyatsiyani bir me'yorda ushlab turish uchun turli xil metodlarni kashf qilishga harakat qilishmoqda yoki bor metodlar ustida ish olib borishmoqda. Ana shunday metodlardan biri bu inflyatsiyani targetlashdir. Bu atama 1970-yillarda Germaniya va Yangi Zelandiyada qo'llana boshlagan. Ammo rasman 1990 yil amalda qo'llangan va buni birinchi bo'lib Yangi Zelandiya amalga oshirgan, keyinchalik Kanada va Buyuk Britaniya ham bu metodni o'z iqtisodiyotida qo'llaydi. Inflyatsiyani targetlashda qaysidir muddatgacha inflyatsiyani tushirish yoki amaldagi inflyatsiyani qaysidir muddatgacha ushlab turish uchun prognozlar ko'zda tutiladi. Aynan manashu usul hozirda ko'plab davlatlardan tomonidan o'rganilib iqtisodiyotga joriy e'tilmoqda. Hozirda inflyatsiyani targetlash usuli 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Umuman olganda inflyatsion targetlash rejimini amalga oshirish uchun qanday shartlar bajarilishi zarur:

- inflyatsiyaning doimiy targetini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish (inflyatsiya, uning omillari hamda ko'zlangan inflyatsion target haqida aholini muntazam ravishda xabardor qilish)

-inflyatsion jarayonlarni boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha instrumentlardan (REPO va valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari, hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha auksionlar) keng miqyosda foydalanish;

-pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar (xo'jalik yurituvchi subyektlar holatini tahlil qilish: uy xo'jaliklari sohasi, tadbirkorlik sohasi, davlat boshqaruvi sohasi va tashqi dunyo) qabul qilish uchun batafsil makroiqtisodiy tahlil qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda prognozlash;

-pul-kredit siyosati maqsadlari (narxlar barqarorligi, kreditlarning ommabopligi, past darajadagi inflyatsiya, aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini oshirish



va hokazo)ni keng jamoatchilikka yetkazish uchun kommunikatsiyaviy siyosatni takomillashtirish, makroiqtisodiy holatni prognoz qilish imkoniyatini ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish.

Inflyatsiyani targetlash usul turli xil iqtisodiy ekspertlar va olimlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun judayam foydali deb e'tirof etiladi. Lekin bu usuldan hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar ham foydalanadilar. Bunga misol qilib Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Shvetsariyani olishimiz mumkin. Shu sababli O'zbekistonda ham inflyatsiyani targetlash bo'yicha hukumat topshirig'i berildi va berilgan takliflar asosida 2024-yilga borib inflyatsani 5 foiz miqdoriga tushirish va undan keyingi yillarda uni shu ko'rsatkichda ushlab turish Markaziy bankka ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Inflyatsiyani targetlash o'zi iqtisodiyotga nima beradi va u nima uchun rivojlanayotgan davlatlar uchun foydalibroq deb e'tirof etilladi. Umuman olganda bunga bir muncha sabablar bor. Ko'plab iqtisodchilar asosiy sabablardan biri narxlarni bir me'yorda ushlab turishiga katta yordam berishidir deb takidlashadi. Biz bilamizki rivojlanmagan, rivojlanayotgan yoki ba'zida rivojlangan mamlakatlarda ham narxlarning keskin oshishi va buning natijasida aholining xarajatlarining oshishi asosiy muammolardan hisoblanadi. Narxlarning sekin o'sishi esa nafaqat aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi balki buning ortidan iqtisodiyot ham tez o'sishi mumkin. Inflyatsiyani targetlash odamlarda shunday taassurot uyg'otadiki go'yoki hozir narxlar arzon tez va ko'p sotib olishimiz kerak belgilangan muddat o'tgach narxlar qimmatlashadi deb o'ylab tez va ko'p mahsulot yoki xizmatlarni xarid qilishadi. Buning ortidan esa talab haddan tashqari ko'payadi va iqtisodiyot tez rivojlanadi. Balki shu sababli mamlakatimiz inflyatsiyani targetlashga o'tgandir bu katta sabab lekin yetarli bo'lmasligi mumkin, inflyatsiyani targetlash nafaqat narxlarni bir me'yorda saqlab turadi balki investorlar uchun haqiqiy imkoniyatlardan biri sifatida ko'riladi. Chunki tasavvur qiling makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tez-tez o'zgarib turadigan davlatlarga investorlar investitsiya kiritishni ko'pam xush ko'rmaydi, investorlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ko'pam o'zgarmaydigan va barqaror bo'lgan davlatlarga investitsiya kiritishadi. Inflyatsiyani targetlash orqali esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni bir me'yorga tushirish mumkin va buning ortidan investorlar investitsiya kiritishadi va iqtisodiyot tez rivojlanadi, ishlab chiqarish ko'payadi, ishsizlik qisqaradi, aholi daromadlari oshadi va bu o'zo'zidan yalpi ichki mahsulot oshishiga olib keladi. Shu sababli hozirda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar inflyatsiyani targetlashga o'tishmoqda.



Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosa qilarkanmiz, umuman olganda inflyatsiyani targetlash iqtisodiyot uchun ko'plab foyda olib kelish bilan birga ba'zi salbiy tomonlarni ham o'z ichiga oladi. Har bir mamlakat esa ushbu inflyatsiyani targetlashning salbiy tomonlari ta'sirini iloji boricha kamaytirishga harakat qilishi va inflyatsiyani targetlash bilan birga pul-kredit, fiskal siyosatini to'g'ri olib borish ortidan yuqori iqtisodiy o'sishga erishishi mumkin. Inflyatsiyani targetlash bilan yuqori iqtisodiy o'sishga erishmoqchi bo'lgan har bir davlat inflyatsiyani targetlash siyosatini shunchaki qaysidir davlatnikidan ko'chirib qo'ymasdan, har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan holda inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llashi va u bilan chambarchas bog'liq boshqa pul-kredit, fiskal siyosatlarini ishlab chiqishi kerak. Shundagina ko'zlangan iqtisodiy, ijtimoiy o'sishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Coy, Peter (7 November 2005). "What's The Fuss Over Inflation Targeting?"
2. Kamolova L.I. Inflyatsiya va uni tartibga solishning dolzarb muammolari: tizimli yondashuv // Деньги и кредит. 2021. № 3.
3. Муродов С.Р. Инфляция: современный взгляд на вечную проблему. М.: Маркет ДС Корпорейшен, 2021
4. Axmedov E.E. (July 28th 2022). Inflyatsiyani targetlash va uning iqtisodiyotga ta'siri.
5. <https://en.m.wikipedia.org/>
6. <https://www.finlit.uz>
7. <https://www.cbu.uz>

